

Journal of Social Research in Uzbekistan

**ANALYSIS OF THE GEOGRAPHICAL RESEARCH OF THE IMPERIAL RUSSIAN
GEOGRAPHICAL SOCIETY IN TURKESTAN IN THE SECOND HALF OF THE
19TH CENTURY**

Gulkhayo Tajiyeva

Master's student

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Turkestan, IRGJ, Central Asia, National Archives of Uzbekistan, fund, cartography, geography, railway, Aral Sea, Amudarya, expedition, research.

Received: 20.09.24

Accepted: 22.09.24

Published: 24.09.24

Abstract: In this article, the researches of the Imperial Russian Geographical Society in Turkestan, which operated in the Turkestan General Governorate, are analyzed based on archival documents. Also, the results of the researches of F.R. Osten-Sakken, I.V. Mushketov, G.A. Romanovsky, V.F. Oshanin and M.N. Bogdanov, who were engaged in geographical activities in the country, were studied based on archival documents.

**XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA IMPERATORLIK RUS GEOGRAFIYA
JAMIYATINING TURKISTONDAGI GEOGRAFIK TADQIQOTLAR TAHLILI**

Gulxayo Tojiyeva

Magistratura talabasi

O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Turkiston, IRGJ, O'rta Osiyo, O'zbekiston Milliy arxivi, fond, kartografiya, geografiya, temir yo'l, Orol dengizi, Amudaryo, ekspeditsiya, tadqiqot.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston general-gubernatorligida faoliyat yuritgan Imperatorlik Rus Geografiya jamiyatining Turkistondagi tadqiqotlari arxiv hujjatlari asosida tahlil qilingan. Shuningdek, o'lkada geografik faoliyat bilan shug'ullangan F.R.Osten-Sakken, I.V.Mushketov, G.A.Romanovskiy V.F.Oshanin va M.N.Bogdanov tadqiqotlari natijalari arxiv hujjatlari asosida o'rganilgan.

АНАЛИЗ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ ИМПЕРАТОРСКОГО РУССКОГО ГЕОГРАФИЧЕСКОГО ОБЩЕСТВА В ТУРКЕСТАНЕ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX ВЕКА

Гульхайо Таджиева

студент магистратуры

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Туркестан, IRGJ, Средняя Азия, Национальный архив Узбекистана, фонд, картография, география, железная дорога, Аральское море, Амударья, экспедиция, исследования.

Аннотация: В данной статье на основе архивных документов анализируются исследования Императорского Русского географического общества в Туркестане, действовавшего в Туркестанском генерал-губернаторстве. Также на основе архивных документов изучены результаты исследований Ф.Р. Остен-Саккена, И.В. Мушкетова, Г.А. Романовского, В.Ф. Ошанина и М.Н.

KIRISH

Turkistonni o'rganish 1861-yilgi islohotdan keyingi davrda boshlangan. Rossiyaning mustamlaka hududlarida sotish bozorini kengaytirish va xomashyo ishlab chiqarish manfaatlarini mustahkamlash maqsadida tadqiqotlar amalga oshirilgan, jumladan Turkistonning tabiiy boyliklari va iqtisodiy xususiyatlari bilan batafsil tanishishni asosiy maqsad sifatida bilishgan. Tadqiqotchilarning aksariyati Turkistonga diplomatik missiyalar yoki harbiy otryadlar bilan kelgan, bu esa yo'nalish tanlash imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklagan. Bosqindan keyin rus olimlari mintaqaning istalgan burchagiga kirishlari mumkin bo'ldi. Bu davrga kelib kuchaygan Rus geografiya jamiyati Turkistonni o'rganish bo'yicha ishlarni kengaytirish uchun katta tashabbus ko'rsata oldi[1].

ASOSIY QISM

1967-yilda Poltoratskiy partiyasi tomonidan kelgan ekspeditsiya Markaziy Tyan-Shan kartografiyasiga oid qimmatli materiallarni yetkazib bergan, ekspeditsiya ishtirokchisi, Rossiya geografiya jamiyati a'zosi F.R. Osten-Sakken qiziqarli fizik-geografik ma'lumotlarni to'plagan.

1869 yilda Kaulbars Tyan-Shan bo'ylab yo'nalishlarni o'rganish uchun Markaziy va G'arbiy Tyan-Shanga uzoq muddatli tadqiqotni amalga oshirgan. Ushbu ekspeditsiya natijasida balandliklarni aniqlash, topografik o'rganish va tog'lar, qirlar, muzliklar hamda aloqa yo'llarining batafsil tavsifi o'rganilgan.

1874-yildan boshlab I.V. Mushketov va G.A. Romanovski Turkistonni geologik o'rganishga irod tadqiqotlarni amalga oshirdi.

Romanovskiy asosan O'rta Osiyoning shimoli-sharqiy qismida ishlagan, I.V. Mushketov esa bir necha yillarini Tyan-Shan, Oloy va Turon tekisliklarini o'rganishga bag'ishlagan. Mushketov Turkistonning eng qiziqarli hududlari bilan tanishib, keng ko'lamli materiallar to'plab umumlashtirgan[2].

70-80-yillarda ilmiy tadqiqotlar sohasi sezilarli darajada kengaydi. Bu davrda eng ko'p ekspeditsiyalar bir tomondan Markaziy Tyan-Shan va Pomir-Oloyga, ikkinchi tomondan Amudaryoning quyi oqimiga yuborildi[3].

O'tish qiyin bo'lgan tog'li hududlarni o'rganishda iste'dodli olim va mashhur sayohatchi A.P. Fedchenkoning Zarafshon yuqori oqimidagi tadqiqotlari, xususan, Oloy vodiysiga qilgan ekspeditsiyasi hammaga ma'lum. Qiyinchiliklarni boshdan kechirib, o'lim xavfiga duchor bo'lib, u hech kim tomonidan mutlaqo o'rganilmagan hududlarga kirib bordi, bir qator yirik tadqiqotlar amalga oshirdi (Alesey vodiysi, Trans-Oloy tizmasi, Shurovskiy muzligi) va o'simlik hamda hayvonot dunyosi haqida birinchi keng qamrovli materiallarni o'rgandi. A.P.Fedchenkoning yutuqlari uning zamondoshi tomonidan yuqori baholangan[4].

1876-yilda Pomir ekspeditsiyasi ishtirokchilari Skobelev Kostenko va Korostovsevlar yo'nalishli tadqiqotlarini o'tkazish natijasida qimmatli geografik ma'lumotlar to'pladilar.

N.A. Severtsov 1877-yilda avval G'arbiy Tyan-Shan va Sharqiy Farg'onada so'ng Pomirda tadqiqotlar amalga oshirgan. Fanga mutlaqo noma'lum bo'lgan katta hududni qamrab olgan ekspeditsiya natijasi sifatida yangi xaritalar, balandlik ta'riflari, qiziqarli umumlashmalar yaratilgan[5].

I.V.Mushketovning taklifiga binoan V.F.Oshanin 1882-yil Qorategin va Darvazga sayohati va Turkistonda tabiatshunoslik tadqiqotlari uchun rus geografiya jamiyatining kichik oltin medali bilan taqdirlangan[6].

1882-yilda akademik Middendorfning yirik monografiyasi va "Farg'ona vodiysi ocherklari" nashr etilgan. Turkistonga qilgan sayohatidan so'ng yozilgan. O'z davri uchun bu asar katta ahamiyatga ega edi, chunki unda har tomonlama qiziqarli geografik hududlar tavsifi berilgan[7].

N.A.Severtsov 1857-yilda Orol dengizi bilan ilk bor tanishganida ham uning kamayib borayotganini payqagan. 1874-yilgi ekspeditsiya paytida bu fikrni tasdiqlovchi ko'plab fakt va kuzatishlarni to'plash imkoniga ega bo'lgan. Ushbu hodisaning sababini topishga urinib, u Orol-Kaspiy havzasi shimoli-sharqda Balxash bilan tutashadigan ulkan hududni egallagan degan taxminga asoslanadi. N.A.Severtsovning fikricha, Orol dengizining qisqarishi va qurishi jarayonini o'sha davrda kuzatish mumkin bo'lgan[8].

M.N. Bogdanov Amudaryo oqimining o'zgarishiga mamlakat janubi va janubi-g'arbiy qismidagi tektonik ko'tarilishlar sabab bo'lgan deb hisoblagan. Gluxovskiyning zamonaviy gipotezasi bilan solishtirganda, uning taxminlari juda asosli ko'rinadi[9].

O'rta Osiyo temir yo'li yo'nalishini va Amudaryo havzasini o'rganish bo'yicha Samara ilmiy ekspeditsiyasiga I.V. Mushketov, Sorokin, Rostovtsov, Peltsam, rassomlar N.N. Karazin va E.E. Simikov va boshqalar qatnashishgan. Ekspeditsiya Orol Qoraqum tabiati haqida qiziqarli ma'lumotlar, shuningdek, qumni mustahkamlash usullarini o'rgandi va ulkan hudud uchun tabiiy tarixiy ma'lumotlarni to'pladi.

XULOSA

IRGJning Turkistondagi bo'limini tashkil etilishi nisbatan kechroq amalga oshirilgan. XIX asrning 90-yillarida o'lkada faoliyat yuritgan bir guruh olimlarning taklifidan so'ng, Samarqand viloyati harbiy gubernatori, general-leytenant N.Y. Rostovsev, keyinroq Turkiston general-gubernatori baron A.B. Vrevskiy IRGJning ma'muriyati bilan bu masalani muhokama qilishgan. Xususan, bo'limni ochilishida mashhur olim, o'sha davrda IRGJning vitse-raisi P.P. Semyonov-Tyanshanskiyning hissasi katta bo'ldi. Olim IRGJning oldida turgan ilmiy vazifalarni katta va keng qamrovliligini anglab yetgan holda Turkiston o'lkasida uning bo'limini ochilishi haqidagi fikrni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi[10]. Uning harakati bilan jamiyatning Turkistondagi bo'limini ochish maqsadida Rossiya Imperiya Ichki ishlar vazirligi va Moliya vazirligi bilan yozishmalar olib borilgan. 1895 yilning noyabr oyida boshlangan harakatlar bir yil ichida jamiyatning huquqiy asoslari bo'lib xizmat qilgan hujjatlarni qabul qilinishi bilan yakunlangan[11].

Arxiv hujjatlaridan ma'lum bo'lishicha, jamiyat nizomi 1896 yil 26 dekabrda Ichki ishlar vaziri tomonidan tasdiqlangan[12]. Jamiyat faoliyati 1897 yil 28 fevralda boshlangan. Jamiyat Turkiston o'lkasi va unga qo'shni mamlakatlarni geografik jihatdan o'rganish, ilmiy ma'lumotlar yig'ish maqsadida tuzilgan[13]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nazarov, A. Y. (2021). Classification Of Documents Of Turkestan Scientific Societies Kept In The National Archive Of Uzbekistan. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND CURRENT RESEARCH CONFERENCES* (pp. 9-12).
2. Nazarov, A. Y. (2020). Scientific societies in the Turkestan governorate-general as an instrument of colonial statehood (archival source study). *Journal of Critical Reviews*, 7(7), 1068-1073.
3. Каульбарс А.В. Материалы по географии Тянь-Шаня, собранные во время путешествия 1869 года // ЗИРГО. Т. V. – СПб.: Тип. М. Стасюлевича, 1875. – С. 252-539.
4. Мушкетов И.В. Туркестан Географическое и орографическое описание по даннки, собраннкм во время путешесвий с 1874 по 1880 г.Спб.,1886, т.1. 2-е изд. Значит.дополн.Пг, 1915. – С. 237

5. Донцова З.Н. Туркестанский отдел Русского географического общества в дореволюционный период (1897–1917 гг.): Дисс ... на соиск. уч. степ. канд. геог. наук. – Ташкент: Изд-во САГУ, 1951. – Б. 70-74.
6. O'zMA I-69-fond, 1-ro'uxat, 8a-yig'majild, 394-orqa varaq.
7. Краснов А.Н. Опкт истории развития флоры южной части восточного Тянь-Шаня. Зап. РГО, Т. XIX, 1888. – С. 225
8. O'zMA I-69-fond, 1-ro'uxat, 8a-yig'majild, 394-396-varaqlar.
9. O'zMA I-69-fond, 1-ro'uxat, 61-yig'majild, 1-varaq
10. Пуговкина О.Г. Источники по истории изучения ТОИРГО // Вестник Каракалпакского отделения АН Республики Узбекистан. 2019. № 1, – С. 84-88.
11. Nazarov, A. Y. (2020). Analysis of historical and geographical research conducted in the governor-general of Turkestan. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 858-863.
12. O'zMA I-69-fond, 1-ro'uxat, 1-yig'majild, 1-varaq.
13. Nazarov, A. (2020). History Of The Emergence And Development Of Scientific Societies In The Governor-General Of Turkestan. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(10), 82-88.